

## BOLALARDAGI YUQUMLI KASALLIKLARNING OLDINI OLISH

**Otaxonova Dilnoza**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Chiroy estetikasi”  
yo ‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Bolalardagi yuqumli kasalliklar hayotiga jiddiy xavf solib kelgan, hamda bog'cha va maktab yoshidagi bolalar orasida uchrashi ilmiy tadqiqotlar, Hozirgi kunda ham bu kasalliklaming bolalar orasida kuzatilayotgani va nogironlik, o'lim ko'rsatkichlariga ta'siri yuqoriligi haqida yoritib berilgan.*

**Kalit so'zi:** *yuqumli kasalliklar, hayotiga jiddiy xavf solib kelganligi, hamda bog'cha vamaktab yoshidagi bolalar, nogironlik, o'lim.*

Yuqumli kasalliklar inson paydo bo'lgan vaqtidan buyon ularning hayotiga jiddiy xavf solib kelgan. Shu kungacha insoniyatga ma'lum bo'lgan yuqumli kasalliklaming deyarli barchasi. chaqaloqlar, bog'cha va maktab yoshidagi bolalar orasida uchrashi ilmiy tadqiqotlar natijasida isbotlangan. Hozirgi kunda ham bu kasalliklaming bolalar orasida kuzatilayotgani va nogironlik, o'lim ko'rsatkichlariga ta'siri yuqoriligidicha qolmoqda. O'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib,

yuqumli kasalliklar tomonidan keltiriladigan talafotlaming keskin kamayishi tibbiyot - ning tez rivojlanishi antibiotiklarning topilishi, zardoblar va vaksinalaming, anatoksinlarning ishlab chiqilishi bilan bog'liqdir. Vaksina, anatoksin va immunoglobulinlar yordamida boshqarish imkonivatiga erishilgan bo'lib, bunday kasalliklar yuqumli kasalliklaming bir qisminigina tashkil qiladi. Ammo boshqarish imkon bo'luyotgan shunday yuqumli kasalliklar borki, ular odamlar,

ayniqsa, bolalar hayotiga xavf solib kelmoqda. Yuqumli kasalliklar

tibbiyotning hamma sohasida o'zining asoratlari va oqibatlari bilan namoyon bo'lib kelmoqda.[1] Bir qator somatik kasalliklaming kelib chiqishi va rivojlanishida asosiy sabablardan biri ekanligi hccli kimga sir

emas. Bolalarni yuqumli kasalliklaming biror-bir turi bilan yi 1 iga bir necha bor kasallanishi qayd etilgan. O'z navbatida bu kasalliklarni davolashda ishlatilayotgan dori vositalari va diagnostika

uchun qo'llaniladigan reaktivlarning xorij davlatlaridan kirib kelishi tibbiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilib, Respublikamizning iqtisodiga katta moddiy zarar keltirmoqda. Shuni alohida aytib o'tish lozimki, antibakterial dorilarning tartibsiz, ko'rsatmalsiz ishlatilishi ko'pgina yuqumli kasalliklar klinik kechish davrlarini

o'zgartirib, klinik, laborator tashxisotni qiyinlashtirib qo'ymoqda. Shu bilan birga qo'zg'atuvchilarining dori vositalariga bo'lgan sezgirlingining kamayishiga sabab bo'lmoqda. Respublikamizda uchramaydigan yuqumli kasalliklaming xorijdan kirib kelishi va tarqalish optimoli borligi har bir tibbiyot xodimining bu kasalliklami chuqur mukammal o'rganishini, oldini olishni va doim tayyor turishini taqozo qiladi. Qo'llanmada bolalar orasida uchrayotgan yuqumli kasalliklarning asosiy kechish xususiyatlari, etiologik tizimi, epidemiologiyasi, patogenez tizmasi, klinik kechimi va tasnifi, diagnostika usullari, uy sharoitida davolashga va kasalxonaga yotqizishga ko'rsatmalar yoritilgan bo'lib, talabalar uchun har bir mavzu fundamental test savollari bilan boyitilgan. Shuningdek, kasalliklaming kechim

davomiyligiga e'tibor qaratilgan bo'lib, sog'lom shaxslardan ajratib qo'yish muddatlari jadval ko'rinishida keltirilgan. O'tkir respirator virusli infeksiyalarning klinik kechishiga va og'irligiga qarab bir-biriga juda o'xshash belgilar namoyon bo'ladi. Shu sababli respirator virusli

infeksiyalarning umumiyo kechimiga to'xtalmoq zarur. Bu guruhga gripp, paragripp, adenovirusli kasallik, reovirusli kasallik, respirator-sinsitial infeksiya va rinoavirusli kasalliklar kiradi. Kasallik

bosqichlari. Yashirin davr (bir necha soatdan 14 kungacha), kasallikning avj olish davri, qaytalanish davri, rckonvalessensiya davri. Kasallik davrlarining davomiyligi uning og'irlilik

darajasi, etiologik turlari, asoratlari bor yoki yo'qligiga bog'liq. Adenovirusli va respirator-sinsitial infeksiya cho'ziluvchan va to'lqinsimon kechishga moyil. Adenoviruslar organizmda uzoq muddat

saqlanishi mumkin. 0 'RVI larining tasnifi. Etiologiyasiga qarab: gripp, paragripp, adenovirus, rinoavirus, reovirus va respirator-sintisial viruslari. Klinik shakliga ko'ra: manifest, bilinar-bilinmas, simptomsiz. Og'irlilik darajasiga ko'ra: yengil, o'rtalik og'ir va og'ir. [2]Kechishi bo'yicha:

asoratlanmagan, asoratlangan. Jarayon joylashgan joyiga ko'ra: rinit, adenoidit, sinusit, otit,

evstaxit, faringit, tonzillit, laringit, traxeit, bronxit, bronxiolit, pnevmoniya, cnterit, kon'yuktivit. Asoratlari. Maxsus (hiqildoq torayishi, obstruktiv bronxit, nafas yetishmovchiligi, MNS ning virus

bilan zararlanishi, yurak, buyraklar zararlanishi). Maxsus bo'limgan yoki ikkilamchi bakterial infeksiya qo'shilishi (pnevmoniya, otit, laringit, bronxit, traxeit, plevrit, tonzillit, sinusit, surunkali



somatik kasalliklaming qo'zishi). 5 Tashxisot mezonlari. Klinik diagnostika intoksikatsion va kataral sindromlarning topilishiga asoslanadi: Intoksikatsiya sindromi t v irligi bo'yicha turlicha

yengil holsizlik va subfebril haroratdan boshlanib, qattiq bosh og'rig'i, isitmalash, quşish, alaxlash, es-hushning buzilishi va tirishishlar bilan namoyon bo'luvchi og'ir darajadagi o'zgarishlar bilan kechadi. Grippda gemorragik sindrom xos bo'lib, bu burundan qon ketish, terida, ko'proq yuz sohasi, bo'yin va ko'krakning ol dindi qismida uchraydigan petexiyalar bilan namoyon bo'ladi. Kataral sindrom burun bitishi va yo'tal ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kasallik boshlanishidaburundan seroz yoki seroz-shilliq suyuqlik kelib, bakterial infeksiya qo'shilgach shilliq-yiringli tus oladi. Yo'tal kasallikning birinchi kunidan kuzatilib, avvaliga quruq, keyin esa nam bo'ladi. Tashxis qo'yishda jarayonning joylashgan o'rni va tarqalganligini aniq ko'rsatish kerak: rinit, adenoidit, faringit, laringit, traxeit, bronxit, bronxiolit, pnevmoniya. Laringitda hiqildoq torayishi kuzatilishi mumkin, bu dag'al tovush va «akillovchi yo'tal» fonida to'satdan nafas olishning qiyinlashuvi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Davolash usulini to'g'ri tanlash uchun nafas yo'llarining torayish darajasini aniq belgilash zarur.

**Bolalar kasalliklari** — asosan bolalar orasida uchraydigan yoki bolalik davrida o'ziga xos kechadigan kasalliklar guruhi. Bolaning rivojlanish xususiyatlariga ko'ra ona qornida o'sish davri, chaqaloqlik davri, bola tug'ilgandan keyingi (4 hafta), emizikli davri (bir yoshgacha), yasli davri

(Z yoshgacha), mактабгача даври (7 yoshgacha), boshlang'ich mакtab yoshidagi (12 yoshgacha) va o'smirlik yoki balog'atga yetish даври (18 yoshgacha) farq qilinadi. Ona qornida o'sish даври bolaning shakllanishida muhim rol o'ynaydi; homiladorlik davridagi zararli omillar (kasalliklar, intoksikatsiyalar, turmush va ovqatlanish sharoitining kamko'stligi, dori-darmonlar ta'siri) onagagina emas, qornidagi homilaning o'sishi va rivojlanishiga ham ta'sir etadi.[3] Bu davrda ko'proq tug'ruq vaqtidagi zararlanishlar (ASFISIYA, shikastlanishlar, falajlar, stafilokokk infeksiyalar) kuzatiladi. Chaqaloqlar ayrim infektion kasalliklarga tug'ma chidamli bo'ladi, biroqularga (ayniqsa, chala tug'ilgan bolalarga) yiringlatuvchi mikroblar avvalo, stafilokokklar tez ta'sir qilib, kindik jarohatining yiringli yallig'lanishiga, chilla yaraga va hatto chaqaloklar sepsisi

kabi og'ir kasallikka sabab bo'ladi. Bu davrda zotiljam ham xavfli kasallik hisoblanadi. Emizikli davrida bola ovqatning o'zgarishiga moslanishi ancha qiyin, uni noto'g'ri ovqatlantirilganda me'daichak buzilishlari (diareya, ichak infeksiyalari va boshqalar), moddalar almashinuvining buzilishi kuzatiladi. Bu davrda nafas va hazm a'zolarining kasalliklari og'ir o'tadi; bolani noto'g'ri ovqatlantirish, sof havo va quyosh nuridan yetarli bahramand etmaslik natijasida raxit avj oladi, diatez, spazmofiliya botbot

uchraydi. Yasli yoshidagi va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o‘z tengqurlari bilan o‘ynab yurgan chog‘ida ko‘kyo‘tal, qizamiq, difteriya, tepki va boshqa

yuqishi mumkin. Bundan tashqari, onasidan o‘tgan immunitetning kuchi yo‘qoladi. Shuning uchun bu davrda bolalar emlanib (vaksinatsiya), immunitet vujudga keltiriladi. Maktab yoshidagi

bolalarda yuqumli kasalliklar ko‘proq uchraydi. Emizikli bola ko‘kyo‘tal va qizamiq bilan og‘riganda ko‘pincha o‘pkasi ham yallig‘lansa, maktab yoshidagi bolalarda bu kasalliklar aksari asoratsiz o‘tadi (o‘pka yallig‘lanmaydi). Boshlang‘ich mifik yoshidagi bolalarda angina, yurak va buyrak kasalliklari, shuningdek allergik kasalliklar ko‘proq uchraydi. Kattaroq bolalarda va o‘smirlilik (balog‘atga yetish) davrida yuraktomir, nerv va endokrin sistemalar (ichki sekresiya bezlari) faoliyatida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Sof havodan yetarli bahramand bo‘lmaydigan, sport bilan shug‘ullanmaydigan, kun tartibiga rioya qilmaydigan o‘quvchilarda bu sistemalar ko‘proq kasallanadi. Demak, Bolalar kasalliklari ning turli shakllari organizmning chidamliligiga,yuqumli kasalliklarga qarshilik ko‘rsatish kuchiga, bolaning yoshiga bog‘liq. Har bir kasallik, u qanday bo‘lishidan qat’i nazar (yuqumli yoki yuqumsiz) jismonan barkamol, sog‘lom bolada yengilroq, ozg‘in, nimjon bolada esa og‘irroq o‘tadi. Bir xil mikrob qo‘zg‘atgan kasallik bolaning turli yoshida turlicha kechadi. Bolalar kasalliklari ning oldini olishda bola organizmining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘zda tutiladi. Emizikli davrda ona suti eng maqbul oziq bo‘lib, bolani qo‘srimcha ovqatlantirish zaruriyati bo‘lganda faqat vrach (pediatr) bilan maslahatlashib olish kerak. Go‘daklarni sut oshxonalarini orqali ovqatlantirishning to‘g‘ri tashkil qilinishi katta ahamiyatga ega.[4] Bolalar kasalliklari qancha barvaqt aniqlanib, vaqtida davolansa, asorati qolmaydi. Buning uchun kattalar va otaonalar Bolalar kasalliklari ning oldini olish usullarini va dastlabki belgilarini bilishlari, bolada kasallikka xos biror alomat sezganda darhol vrachga murojaat etishlari zarur.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O. B. RAXMATOV BOLALAR YUQUMLI KASALLIKLARI.
3. <https://library.tsdi.uz/storage/books>
4. [https://uz.almancax.com/coculkarda\\_74\\_ONA](https://uz.almancax.com/coculkarda_74_ONA)